

*(Handwritten signature)*  
Mening tilagim, da'vatim shuki, Vatanimizning, olivjanob xalqimizning ana shunday mehri  
va ishonchiga doimo munosib bo'ling, marrani hamisha baland olib, bilimga, izlanish va  
o'rganishga intilib yashang, hech qachon bo'sh kelmang, aziz bolalarim!

Islom KARIMOV

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

# TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:22 (66979)  
2014-yil  
2-iyun



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## BARCHA IMKONIVATLAR - BOLALARGA!

Ta'til nafaqat dam olish, balki ko'proq o'qish, o'rganish fasli hamdir

2-bet



# BARCHA IMKONIYATLAR – BOLALARGA!

O'tgan 2013–2014-o'quv yili o'quvchilar uchun yanada zavqli, quvonchli bo'ldi, desak, aslo adashmaymiz. Negaki, yildan yilga xalq ta'limi sohasida ko'plab ibrati ishlar amalgalashmoqda. Ilk marotaba o'tkazilgan «Ingliz tili bilimdonlari» hamda «Huquq bilimdonlari» respublika ko'rnik-tanlovlarini ana shunday tadbirlar sirasiga kirdi. Buni baholi qudrat gazetamiz sahifalarida yoritishga harakat qildik. Ushbu tanlovlar o'quvchilarning faoliyoti bizni ham qovontiradi. Biroq oldinda yozgi ta'til. Bu davr mobaynida o'quvchilar nima ishlar bilan band bo'ladi?

Ullarni qanday yangiliklar kutmoqda?

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi bosqlig'i Hikmatilla DAMJNOV quyidagilarni gapirib berdi.

– Bu davrda o'quvchilarning bo'sh vaqtleri ko'proq bo'ladi. Aslida esa, ta'til nafaqat dam olish, balki ko'proq o'qish, o'rganish fasli hamdir. Biz pedagoglar ta'tildan yanada unumliroq foydalishga harakat qilamiz. Shu bois oromgohlarda ta'limtarbiya ishlarini tashkil etish, ularni malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta'minlash bo'yicha Ishchi guruhning choradabirlar rejası ishlab chiqildi.

Mutasaddi vazirlik va idoralar bilan kelishish holda respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomashtirish Konsepsiysi asosida ishlab chiqilgan «Bolalar sog'lomashtirish oromgohlari to'g'risida»gi Nizom barcha hududiy xalq ta'limi boshqarmaliga yetkazildi.

Joriy yilda kunduzgi oromgoh sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit va qulayliklarga ega bo'lgan 736 ta ta'lim muassasalarini tanlab olindi. Mazkur oromgohlarning 532 tasi umumta'lim maktablari, 108 tasi maktab-internatlar, 85 tasi kasb-hunar kollejlari, 6 tasi akademik litseylar, 5 tasi

maktabgacha ta'lim muassasalarini bazasida tashkil etiladi.

*Joriy o'quv yilda umumiyo'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha bilimlar bellashuvining birinchisi maktab bosqichida 1,9 min. nafar, ikkinchi tuman (shahar) bosqichida 240 ming nafar, uchinchi viloyat bosqichida 10 mingga yaqin o'quvchilar ishtiroy etdi.*

O'tgan yili 4 ta yo'nalishda 33 ta ixtisoslashtirilgan oromgohlar faoliyat yuritgan bo'lsa, joriy yilda 5 ta yo'nalishda 68 ta ixtisoslashtirilgan oromgohlar tashkil etish belgilandi. Ixtisoslashtirilgan oromgohlarining o'tgan yilgisidan farqli tomoni shundaki, ushbu yilda har bir viloyatda 1 tadan yangi yo'nalishdagi «Badiiy ijodiyot oromgohi»ni tashkil etish rejalishtirilgan.

Shuningdek, bu mavsumda qo'shimcha ravishida 8 ta Ekologik-biologik, o'lkashunoslik, 11 ta Texnik ijodkorlik, Mehrbonlik uylari tarbiyalanuvchilari uchun 2 ta ijtimoiy moslashuv oromgohlari tashkil etiladi.

Bu mavsumda amalgalashmoqda o'quvchilarning tashkil etilishidir. Ushbu to'garaklarga

ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan m a l a k a l i mutaxassislar jalb etiladi.

Shuningdek, Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi bilan hamkorlikda oromgohlarni ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishdagi shiorlar, ko'r-gazmali vositalar bilan bezatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ixtisoslashtirgan yo'nalishlardagi Yozgi intellektual rivojlantrish, Ekologik-biologik, o'lkashunoslik, Texnik ijodkorlik va Badiiy ijodiyot oromgohlarini tashkil etish tartibi va dasturlari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, statsionar oromgohlar kutubxonalarini 100 ming nusxaga yaqin qo'shimcha bolalar adabiyoti bilan boyitiladi.

Yozgi ta'til vaqtida oromgohlarga jaib etilmaydigan o'quvchilarning bo'sh vaqtlerini mazmunli tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalaridagi to'garaklar, sport maydonlari, kutubxonalar va ma'naviyat xonalarining uzlukszis faoliyati yo'lda qo'yilib, ushbu

faoliyat ko'rsatmoqda.

Vatani, o'z xalqiga xizmat qilishga bel bog'lagan, yangilikka intilib yashaydigan, g'ayrat-u shijoatga to'la, ko'zlarini yonib turgan yosh avlodimizdek avlod dunyoda kamdan-kam topiladi. Buyuk ishlarga qodir, sog'lom va fikri tiniq bugungi avlodga yanada keng imkoniyatlardan yaratish, ularning yuksak kelajagi yo'llida xalq ta'limi tizimidagi barcha pedagog-xodimlar birdek mas'uldirlar.

Aziz bolajonlar! Yozgi ta'tilingiz maroqli va mazmunli o'tsin!



maskanlarda o'quvchilarning ta'til kunlarini maroqli o'tkazishiga barcha imkoniyatlar yaratiladi.

Yurtimizda a m a l g a oshirilayotgan bu kabi ezgu ishlar a s o s i d a yoshlarimizning nurli istiqbolini ta'minlashdek ezgu maqsad y o t a d i .

Yurtboshamiz ta'kidlaganlaridek, o'z

qilishga bel bog'lagan, yangilikka intilib yashaydigan, g'ayrat-u shijoatga to'la, ko'zlarini yonib turgan yosh avlodimizdek avlod dunyoda kamdan-kam topiladi. Buyuk ishlarga qodir, sog'lom va fikri tiniq bugungi avlodga yanada keng imkoniyatlardan yaratish, ularning yuksak kelajagi yo'llida xalq ta'limi tizimidagi barcha pedagog-xodimlar birdek mas'uldirlar.

Aziz bolajonlar! Yozgi ta'tilingiz maroqli va mazmunli o'tsin!



# Talabatlik muborak! **DILSHOD!**

Bugun sizlarga san'at bo'stonida ulkan yutuqlarga erishayotgan Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqi akademik litseyi o'quvchisi haqida hikoya qilamiz.

Yaxshi xabarning qanoti bor, deyishadi. Yaqinda Dilshod SATTOROV Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan Nikolay Rubenshteyn nomli XII musiqachilar xalqaro ko'rlik-tanlovida muvaffaqiyatlari ishtirot etib, faxrli 1-o'ringa sazovor bo'libdi, degan quvonchli xabar tahririyatimizga ham yetib keldi.

Oiladagi uch nafar farzandning o'rtaqchasi bo'lgan Dilshod boshlang'ich musiqiy ta'limni Glier nomidagi maxsus ixtisoslashtirilgan maktabda oldi. Ota-onasi san'atning chin ixlos-

mandlari bo'lib, farzandidagi musiqaga bo'lgan havasni erta ilg'ab, uning mohir san'atkor bo'lib yetishishi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishdi. Iqtidorli sozanda o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, 2006-yilda «Sog'lom avlod» Respublika ko'rlik-tanlovida fortepiano yo'nalishida faxrli o'rinni qo'lg'a kiritdi.

Tanlagan yo'nalishida tinimsiz izlanadigan yosh musiqachi 2008-yil Italiyaning San-Bartolomeo shahrida o'tkazilgan «Govani Talents»



Istiqlol yillarda davlatimiz tomonidan «Bola huquqlari ta'g'risida»gi Konvensiya, «Bolalarni omon asrasht, himoya qilish va kamol toptirishni ta'minlash ta'g'risida»gi Umumjahon deklaratsiyasining ratifikatsiyasi qilingani yurtimizda bolalar manfaatlari himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganining yorqin datilidir.



## BAXTLI BOLALAR MAMLAKATI

Muhammadqodir va Muhammadyusuf TOSHMATOVlar Farg'onsha shahridagi 10-umumita'lim maktabi o'quvchilarini, sport gimnastikasi bo'yicha xalqaro turnir g'oliblari:

– O'tgan yili ukam ikkizim qilishdi. Bundan keyin ham Fransiyada o'tkazilgan xalqaro sportda yangi-yangi yutuqlarga turnirda muvaffaqiyatlari ishtirot etib, qaytganimizda, farzand bo'lishga harakat tengoshlarimiz bizga havas qilamiz.

# SOG'LOM BOLA buyuk ishlarga qodir

Texnika va texnologiya shiddat bilan rivojlantayotgan bugungi kunda bolalar uchun o'zi yuradigan robot yoki dapi radigan qo'z'irchoq unchalik ham qiziq tuyulmasligi mumkin. Ammo shunga o'xshash buyumlarni bolalarning o'zlarini ixtiro qilgan bo'lsalar-chi?

Yaqinda «Sog'lom bola buyuk ishlarga qodir» shiori ostida o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi ixtirochisi» respublika ko'rlik-tanlovida qatnashib, iqtidorli bolalarning o'z qo'llari bilan yaratgan bir-biridan g'aroyib ixtiolaridan hayratga tushdik. «Barkamol avlod» bolalar texnik ijodiyot markazlarining «Yosh konstruktor va ixtirochi» turkumi-ga kiruvchi «Avtomodel», «Aviamodel», «Kemasozlik», «Robototexnika» hamda «Elektron o'yinchoqlar» to'garagi o'quvchilarini o'z ixtiolarini namoyish etishdi.

– Men Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 2-umumita'lim maktabining 9-sinfida tahlil olaman. Bo'sh vaqtlarimda tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markaziga qatnab, u yerda ustozlarimdan texnika va turli modellarga oid ko'p narsalarni o'r ganmoqdaman. Ushbu tanlovda o'zim yasagan «Ekologik uy» nomli ixtiroim bilan ishtirot etyapman. Bu uying barcha jihozlari ekologik toza mahsulotlardan yasalgan bo'lib, chiroqlari elektr-energiyanı 50 foizgacha tejashta moslashtirilgan. Mazkur ixtiroim insonlarning og'irini yengil qilsa, boshim ko'kka yetardi, – deydi Muhriddin G'ayratov.

Hakamlar hay'ati o'quvchilar



## Yilning eng bilimdon o'quvchilarini



Yilning eng bilimdon o'quvchilarini bilan yaqindan tanishish maqsadida poytaxtimizning Chilonzor tumanidasiga 178-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabiga yo'l oldik.

ixtiro qilgan buyumlarining bugungi kundagi ahamiyat, dizayni, texnik talablarga javob berishi kabi yo'nalishlar bo'yicha baholab borishdi. Yakunda turli nominatsiyalarda g'oliblari aniqlanib, ularga tadbir tashkilotlilarining esdalik sovg'alarini topshirildi.

Aziz bolajonlar, siz ham yuqoridaq tengoshingiz kabi biror buyumni ixtiro qilib, kashfiyotchiga aylannoqchimisiz? Unday bo'lsa, o'z loyihalaringiz bilan tumaningizdagida «Barkamol avlod» bolalar markaziga boring va u yerdagi ustozlarning maslahatlariga qulqutning.

Ozoda TURSUNBOYEVA.  
Surat muallifi: Z. NISHONOVA

Nigora opa Zokirova rahbarligidagi 4-«A» sinf o'quvchilar bilan uchrashar ekanmiz, bu sinfdan a'lochi, zukko va intiluvchan bolajonlar ko'pligiga amin bo'ldik. Ulardan biri sinf sardori Azimbek Narzullayev kuni kecha «Yilning eng bilimdon o'quvchisi – 2014» ko'rlik-tanlovining shahar bosqichida husnixat bo'yicha 1-o'ringa sazovor bo'libdi. Ustozning aytilishicha, Azimbek 1-sinfdan buyon harflarni chiroqli, tartibli yozish bilan birga, matematika, o'qish fanlariga qiziqaranekan:

– Azimbek maktabda tashkil etilgan turli to'garaklardan tashqari, raqs maktabiga, «Jar» sport-sog'lomlashtirish markazidagi suzish mashg'ulotlariga qatnaydi. Men bu o'quvchimning shunday yutuqqa erishishining boisni, hamisha vaqtning

qadriga yetib, undan oqilona foydalanshida, deb bilaman, – deydi Nigora opa.

Azimbekning sinfdoshi Muhammadizo Furqatonov esa tanlovda ingliz tili fani bo'yicha faxrli o'rinni qo'lg'a kiritibdi. Bu tengoshingiz maktabda a'lo baholarga o'qishdan tashqari, «Bunyodkor» futbol klubini qoshidagi to'garakka a'zo bo'lgan ekan. U kelajakda xorijiy tillarni mukammal biladigan iqtisodchi bo'lib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shishni orzu qiladi.

Orzular sari hozirdan harakat qilmoq lozimligini to'g'ri anglagan tengoshsharingizning yutuqlariga havas qilib, siz ham o'z oldingizga katta maqsadlar qo'ying!

Sayyora QODIROVA

## TABIATNI ASRAYLIK

Olti harfdan iborat TABIAT so'zini talaffuz qilganimizda, ko'z oldimizda hayvonot va o'simliklar olami, ulardan o'rmonlar, baland qoyalar-u, ularidan oqib tushayotgan zilol suvlari namoyon bo'ladi.

Biz ona tabiat farzandimiz. Uning bergen ne'matlardan umrimiz davomida bahramand bo'lamiz. Shunday ekan, ona tabiatni asrab-avaylash, qadriga yetish bizning insoniyo burchimizdir. Bosh Qomusimizning 50-moddasida ham fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburliklari haqida yozilgan.

Bobom, buvilmarning aytilsharicha, ilgari odamlar ariqdan suv ichishgan ekan. Ular suvni muqaddas



bilib, unga chiqindi tashlashni gunoh sanashgan.

Qadri tengdoshlar, keling, otabobolarimizning udumlariga amal qilib, ko'chatlar o'tqazib, bog' yaratayligi. Dam olish go'shalariga borganimizda tabiatga zarar yetkazmaslik choralarini ko'raylik.

**Javohir HAQBERDIYEV,**  
Samarqand viloyati,  
Pastdarg'om tumanidagi  
6-umumta'l'm maktabi  
o'quvchisi

## SHOIRLARI KO'P MAKTAB

Bu yil gazetamizga  
obuna bo'lishda  
surxondaryolik o'quvchilar  
har qachongidan ham faol  
bo'lishdi. Shu bois,  
dastlabki sayohatimizni  
mazkur viloyatdan  
boshladi. Eng qiziq tomoni  
esa tahririyatimiz xodimi,  
taniqli shoir Axtamquli  
tavallud ayyomining ellik  
yilligi ham shu kunlarga  
to'g'ri keldi.



Sariosiyo tumanidagi 45-umumta'l'm maktabi haqida gap ketganda, bu yerni hech ikkilanmay shoirlar maskani deyish mumkin. Ular bilan uchrashuv chog'i she'r o'qishga ishtiyoqmand o'quvchilar ko'pligidan O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid va Axtamquliga arang navbat yetdi. Yana har ikki shoirimiz ham mazkur maktabning sobiq bitiruvchilari. O'sha damda shogirdlari kamolidan ko'ksi tog'dek ko'tarilgan ustoz Ibrohim Safarovni bir ko'rsangiz edi...

Tadbirdan oltan olam-olam quvonch zavqi bilan yana yo'liga otlandik. Oldinda bizni Musiqa va san'at maktabi o'quvchilari kutishayotgandi. U yerdagi adabiyot va san'atga ixlosmand o'quvchilarning ko'pligidan rosa sevindik. Zamoniavi uslubda buniyod etilgan ushbu koshonada tahsil olayotgan yosh iste'dod egalariga esa rosa havasimiz keldi.

Zerikib qolmadingizmi? Yo'q, deysizmi? Unday bo'lsa, sizni Sariosiyo tumani markaziga taklif etamiz. Bu yerda yangi kitob do'konining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda biz ham ishtirok etdik. Shu tobda tuman xalq ta'limi muassasalarini

faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Ahmadjon aka Boboyevning hayajoni biznikidan kam emasdi. U kishining «Har bir o'quvchining sevimli gazetasini bo'lishi kerak», degan so'zlaridan shuni angladimki, keyingi yil ham surxondaryolik o'quvchilar «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishda peshqadamlar safida bo'lishdi.

Ha, aytgandek, shoir Axtamqulining otasi – 100 yoshni qarshilayotgan Sattor buva bilan sayohatimiz davomida bir necha bor gurunglashdik. «Yoz bilan Zebo», «Alpomish» va boshqa bir necha dostonlarni yod biladigan tabarruk otaxon doston aytishni boshlaganlarida, bog'larda sayrayotgan bulbular ham uning ovoziga mast bo'lib qolganday edi, go'yo.

Shunday qilib, Surxondaryo viloyatinning olis Sariosiyo tumaniga qilgan ijodiy safarimiz yakuniga yetdi. Shu tobda sayr-u sayohatga qiziqadigan siz, yosh do'starimga tez-tez sayohatga chiqib, yurtimizning maftunkor go'shalaridan zavqlaning, degim keldi.

**Yusuf ABDULLAYEV,**  
Toshkent-Surxondaryo-Toshkent.  
F. MATYOQUBOV oltan surat

## O'ZBEKISTON – BAG'RI KENG DIYOR

### BOLAJON



Surxondaryo viloyatining Qum-qo'rg'on tumanidagi 20-umumta'l'm maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi Nasiba opa Kenjayeva o'quvchilarda o'z faniga mehr uyg'ota oltan ustozlardan birdir. Iqtidorli shogirdlaridan biri Maryam Pardayeva yaqinda o'tkazilgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» deb nomlangan tanlovda muvaffaqiyatlari qatnashib, tuman va viloyatda faxrlari o'rinni egallab, ustoz ishonchini oqladi.

Quyida uning 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga atab «O'zbekiston –

bag'ri keng diyor» deb nomlangan rasmiga baho berishingiz mumkin.

**BONU**

## BOR MEHRIMIZ SIZLARGA

Kuni kecha Toshkent shahar ko'zi ojiz bolalar maktab-internatida 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan xayriya tadbir bo'lib o'tdi. Unda so'zga chiqqanlar bolajonlarni bayram bilan tabriklab, ularga eng samimiy tilaklarni bildirishdi.

Ayniqsa, ular tilidan yangragan quydagi misralar yig'ilganlarni to'lqinlantirib yubordi:

*Yurtboshim ishonchi bizlarga qanot,  
Tanti o'zbek xalqi farzandlarimiz,  
Xonardonlar fayzli, tur mushlar obod,  
Bizlar mustaqil yurt farzandlarimiz.*


**Mahmudjon AZIMOV**



Tadbirning badii qismini Respublika «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazining bir guruh raqqosa qizlari bosholab berishdi. So'ngra sahnaga taklif qilingan Toshkent shahar ko'zi ojiz bolalar maktab-internati tarbiyalanuvchilari bolalikni, ona Vatanni va tinchlikni tarannum etuvchi she'r-u qo'shiqlarni ijro etib, mehmonlarga xushnudlik ulashdi.

## BIZ HAM HUNAR O'RGANAMIZ

*Yaqinda  
poytaxtimizdagi 87-  
aqli zaif bolalar uchun  
ixtisoslashtirilgan  
umumta'l'm maktabida  
«Qovoq buyumlari»  
yo'nalishini tamomlagan besh  
nafar o'quvchi «Mohir  
hunarmand ijtimoiy maktab  
loyihasi» hamkorlarining  
diplom va esdalik  
sovg'alarini bilan  
taqdirlandi.*



«Kulolchilik» singari yo'nalishlarni ham kiritishni rejalashtirganimiz.

O'zi yasagan buyumlari bilan yaqinlari ko'nglini xursand qilishga intilayotgan bolalarning ko'zlaridagi quvonchni ko'rib, biz ham shodlandik. Ayniqsa, 9-sinf o'quvchisi Igor Belobrovning onasi tavallud kunida o'g'li unga o'z qo'llari bilan yasagan buyumni sovg'a qilganida, qanchalik sevinganini aytib, farzandining hunar o'rganishiga hissa qo'shan tashkilotchilarga, loyiha rahbariga minnatdorlik bildirdi.

**LAYLO.**

*Surat muallifi:  
Zuhra NISHONOVA*

# RAG'BAT - MUVAFFAQIYATGA YETAKLAYDI

Mana, navbatdagi o'quo yili ham yakunlanib, egallagan bilimlaringizni sarkisob qiladigan vaqt keldi. Ayniqsa, yozgi ta'tilda chet tili fanidan o'lgan saboqlaringizni qayta takrorlashni maqsad qilib qo'ygan bo'lsangiz, ajab emas.

Prezidentimning «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish choratdirlari to'g'risida»gi Qarori o'quvchilarining til o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirdi. Quvonarlisi, quiyi sinflarda o'yin tarzida o'tilgan darslar ularning alifboni va boshlang'ich bilimlarni puxta egallashlariga zamin yaratmoqda.

Men o'quvchilarimning doimo a'llo baholarga o'qib, kelajakda yetuk mutaxassis

bo'lib yetishishlarini istayman. Shuning uchun bolalarga o'za ona tili bilan birga, chet tillarini ham mukammal o'rganish zarurligini uqtiraman, ularni doimo rag'batlantrib turishni kanda qilmayman. Zero, rag'bat – o'quvchini muvaffaqiyatga yetaklaydi.

**Gulbonu KUMEKBAYEVA,**  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi  
15-umumta'lim maktabining ingliz tili  
fani o'qituvchisi



## Opposite adjectives – antonyms (Qarama-qarshi sifatlar – antonimlar)

Find and write down the antonyms:

1. strong ≠ weak
2. ...
3. ...
4. ...
5. ...



## TWO FRIENDS (Ikki do'st)

(Short story)

Once there were two friends in a village. Their names Sardor and Sanjar. One day both of them set out on a journey. They promised to help each other in trouble.

Their way lay through a forest. As they were passing through a forest, they saw a big bear. The bear was coming towards them. They were much frightened to see such a deadly sight. Sanjar at once climbed up a nearby tree to save his life. He was unaware of his friend's

safety. Sardor did not know how to climb up a tree. But he was wise and intelligent. He had heard that bears do not touch the dead. So he lay on the ground held his breath and appeared to be dead. The bear came near him and sniffed the whole body of Sardor. Thinking him dead, he went away. When the bear had gone quite far Sardor got on his feet, Sanjar also came down the tree. He asked Sardor to tell him what the bear had whispered in his ear. Sardor said that the bear had advised him to beware of false friends like him.



### New words:

Trouble – qiyinchilik  
Through – orqali, orasidan  
Towards – tomon, sari  
Climb up – sakrab chiqmoq  
Unaware – bexabar  
Wise – aqli  
Touch – tegmoq  
Hold – ushlab turmoq  
Sniff – hidlamoq  
Whisper – pichirlamoq  
Advise – maslahat bermoq  
Beware – ehtiyoj bo'lmoq

O'zDJTU talabasi  
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

## Riddles (Topishmoqlar)

It hasn't legs  
But just for fun,  
It is always  
On the run.



At night they come  
Without being fetched,  
And by day they are lost  
without being stolen.  
What are they?



Dilshodaxon MAMADALIYEVA,  
Farg'onha viloyati, O'zbekiston tumani

## The plural of nouns (Otlarning ko'plik shakli)

Ingliz tilida sanaladigan otlarga «s» qo'shimchasini qo'shish orqali ko'plik shakli yasaladi.

Agar so'zning oxiri «ss, x, ch, sh, o» harflari bilan tugasa «es» qo'shimchasi qo'shiladi.

For example: a box – boxes, a photo – photos.  
Agar so'zning oxiri «y» harfi bilan tugasa, ko'plikda «-ies»ga aylanadi.

For example: a cry – cries, a fly – flies, a city – cities.  
Lekin istisno holat ham mavjud bo'lib, bunda so'zga «s» yoki «es» qo'shimchalari qo'shilmaydi, aksincha, so'zning o'zagi o'zgarib ketadi:

### Singular – Plural

a woman – women  
a man – men  
a child – children  
a tooth – teeth  
a foot – feet  
a person – people  
a leaf – leaves  
a cactus – cacti  
a goose – geese



O'zDJTU talabasi

Komila INOG'OMOVA tayyorladi

## DILIM YAYRAYDI



Quyoshni ko'rsam,  
Dilim yayraydi.  
Bog'larda kezsam,  
Qushlar sayraydi.

Yomg'irlardan so'ng,  
Chiqar kamalak.  
Uning rangiga,  
Talpinar yurak.

Lobar MAHMUDMURODOVA,  
poxtaxtimizning Sergeli  
tumanidagi 277-umumta'lim  
mektebi o'quvchisi

## CHIP-CHIPJON

### haqida jahrigina qissa

Yayra  
SA'DULLAYEVA



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

## O'JARVOY

Ertasiga O'jarvoy Chip-chipjonja indamadi-yu, uning ko'ngliga ozor beradigan boshqa ish qildi.

Oppoq buvi inqillab-sinqillab qo'ndoqdan pastga tushmoqchi edi, kutilmaganda oyog'i toyib ketdi. Qaqlagancha alamlı qichqirib yubordi. Chipor xola, Chip-chipjon ham ranglari oqarib, qo'rqib ketishdi.

Jimitvoy og'ziga suv olib kelib purkadi. Xolasi buvining changini qoqdi. Oppoq buvi o'ziga kelgach, zo'rg'a yurib ketdi. O'zicha allanimalar deb hovlini, gullar orasini aylanib chiqdi. Oshxonaga kiraverishda yotgan guruch donasiga ko'zi tushib, uni yegisi keldi. Bir-bir bosib unga yetib oldi-da, endi tumshug'ini cho'zgandi... osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, O'jarvoy paydo bo'lib, guruchni cho'qilagancha olib qoqib ketdi. Oppoq buvi og'zini ochganicha hang-u mang bo'lib qolaverdi. Lekin ichidan bir narsa uzungandek bo'ldi. Ko'zlarini xiralashib,

yoqolarining quvvati ketdi. Buni ko'rgan Chip-chipjon O'jarvoyning orqasidan yugurmoqchi, olib qoqgan guruchni talashib-tortishib bo'lsa-da, Oppoq buviga olib bermoqchi bo'ldi. O'jarvoy ochofatdek shosha-pisha o'ljasini yutganini ko'rib, to'xtab qoldi. Keyin hang-u mang bo'lib qolgan Oppoq buvining oldiga bordi. Chip-chipjonning ko'ziga uning toji yanayam oqarib ketgandek tuyuldi. Unga shunaqangi rahmi keldiki, oldidan nari ketolmadi. Chip-chipjon Oppoq buvi bilan biroz aylanib yurdi. Jimitvoy yonlariga kelgach, sekingina ulardan uzoqlashdi. Lekin ko'zini yerdan uzmadni. O'jarvoy oldidan o'ta turib «Bir narsani yo'qtomadingmi?» deganiga ham parvo qilmay, yerga qarab boraverdi. Bitta chumoli o'zidan anchal katta donni sudrab borardi. Chip-chipjon shu damda chumolini ham qo'shib cho'qilagisi keldi. Lekin shu o'yga borganidan o'zi orlandi. Ehtimol kasal yotgan onasiga olib borayotgandir? Chip-chipjon yura-yura oxiri bitta don topib oldi. Uni mahkam cho'qilagancha Oppoq buviga keltirdi. O'jarvoy yo'qmikan, deb atrofga bir-bir qaradi-yu, ohista yerga qo'ydi.

- Oling, buvijon.  
Oppoq buvi ko'zlariga ishonmadi. Nahot Chip-

## BIZNI ELGA TANITAR

Bayrog' imizga qarang,  
Yashil, oq va havorang.  
Mustaqillikni yoqlab,  
Turibdi u hilpirab.



Yulduzlar va yangi Oy,  
Bayroqqa berar chiroy.  
Olam uzra yaltirar,  
Bizni elga tanitar.

Shozayniddinxon  
BOLTAYEV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kitob tumanidagi  
6-umumta'lim maktabining  
5-sinf o'quvchisi

## KASBLAR NIMA DEYDI?



Shirin kulcha deysizmi,  
Yo shirmoy non yeiszizmi,  
Mana bu yog'li patir,  
Obi non ham muntazir.  
Yopaman men tandirda,  
Tayyor bo'lur bir zumda.



So'zlaganda tilim chuchuk,  
Ammo demang burni puchuq.  
Do'stalarimga ko'nglim ochiq,  
Begonadir araz, achchiq.  
Bo'lsa hamki yoshim kichik,  
Orzuim - zardo'z, kashtachilik.

Qozon tagida olov,  
Osh damlayman azonda.  
Dasturxonada noz-ne'mat,  
Kasb-u korim - pazanda.  
Tatib ko'rgan darmonda,  
Yemaganlar armonda.

Feruza ABDULLAYEVA,  
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi  
134-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## AHILLIK HAQIDA ERTAK

Bir bor ekan bir  
yoq ekan.  
Kichkinagina  
shaharchada  
qog'ozlar va  
ruchkalar yashar  
ekan. Kunlardan  
bir kun ular  
ba h s l a s h i b  
q o l i s h i b d i .  
R u c h k a l a r  
qog'ozlarni arazlab  
qo'shni shaharchaga ketib  
qolishibdi. Qog'ozlar kundan kunga  
zerikib, ruchkalarni sog'ina  
boshlashibdi. Yozuvlarsiz  
qog'ozlarning yuzlari sarg'ayib,  
xunuklashibdi. Nihoyat, qog'ozlar  
ruchkalarga elchi yuborishibdi.  
Ammo ruchkalar bunga rozi  
bo'lmabdi. Biroq ruchkalarning



y o z g i s i  
kelaveribdi.  
O'z l a r i  
yashayotgan  
shaharchanining  
devorlariga  
y o z i b  
chiqishibdi.  
Bunga shaharcha  
egalarining jahli  
chiqibdi va ularni  
h a y d a b  
yuborishibdi.

Ruchkalar qog'ozlar oldiga qaytib,  
har doimgidek ahil-inoq yashashda  
davom etishibdi.

Anson MATYOQUBOV,  
Toshkent shahri, Chilonzor  
tumanidagi 163-umumta'lim  
maktebi o'quvchisi

chipjon shunchalik mehribon bo'lsa?!

- O'zing yeyaqlol, - dedi mehri toyvanib.
- Jon buvi, siz yeya qoling.

Oppoq buvining xira ko'zlarini yorishganday bo'ldi. Jimitvoy ham «Yeya qoling, axir atay sizga olib keldi», dedi. Shunda Oppoq buvi ularni uzoq duo qildi.

Hovlidagi ko'katlar bir tekisda chirolyi o'sardi. Ayniqsa, shivit, kashniclarning hidi hammayoqni tutar, ochilmagan ishtahalarini ham olib yuborardi. Bu hammadan ham Chip-chipjonja xush yoqar, mo'jiza yuz berayotgandek bu ko'katlardan to'yib-to'yib yegisi kelardi. «Ularning mazasi qanaqaykin?» deb ba'zida o'ylab ham qo'yardi. Lekin u ko'katlar atrofi o'rab qo'yilgan panjara oldiga borib, to'xtab qolardi. Ularning nafis, xushbo'yini to'yib-to'yib hidlash bilangina kifoyalanardi.

Bu gal ham shunday bo'ldi. U o'zi sig'maydigan panjaralar orasidan ko'katlarga tamshanib-tamshanib boqayotgan edi. Jimitvoyning yugurib kelganidan cho'chib tushdi. Mitti yuragi tipirchilab ura boshladti.

(Davomi bor)

Bugungi kunda unib-o'sib kelayotgan, barkamol avlod bo'lib voyaga yetayotgan yoshlarimizning barchasi o'z hayoti, o'z kelajagini sportsiz tasavvur etolmaydi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

## YOSHLIK VA DO'STLIK AYYOMI

O'tgan hafsa Namangan shahrida o'rtasus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quvchilarining «Barkamol avlod — 2014» respublika sport musobaqalari bo'lib o'tdi.



Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, farzandlarimizni yurtimiz kelajagining chinakam buniyodkorlari etib tarbiyalashda uch bosqichli sport o'yinlari ning tutgan o'mni beqiyos. Hali dunyoning hech bir mamlakatida kuzatilmagan mazkur tajriba birinchi sinf o'quvchilaridan tortib, oliy o'quv yurti talabalarigacha — yosh avlodning barcha vakillarini o'z ichiga qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu tizimning o'rta bo'g'ini — «Barkamol avlod» sport musobaqlari bu yil oltinchi marotaba o'tkazildi. Shu kungacha mazkur sport bayramiga Jizzax, Andijon, Chirchik, Nukus hamda Termiz shaharlari mezbonlik qildi. Quvonarlisi, ushu sport musobaqlarida munosib qatnashib, o'z mahoratini oshirgan yoshlarimiz bugun Osiyo va jahon championatlarida ham yuqori natijalarni qo'lgakiritib kelmoqda. Jumladan, futbol bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon championati ishtirokchilari — Jamshid Iskandarov, Igor Sergeyev, shaxmat bo'yicha ko'plab xalqaro turnirlar g'olibalari — Nodira Nodirjonova, Hulkar Tohirjonova, badiiy gimnastikachi Ravilya Faxruddinova ham ushu sport bayrami orqali ilk

«Yaxshi bola nom keltirar» deganlaridek. Nargizaning musobaqada g'olib bo'lgani haqidagi xushxabar bir zumda butun qishloqqa targaldi. Do'st-u qarindoshlar uning ota-onasi Saidmurod aka va Albina opani tabriklamogga oshiqishdi.

## NARGIZA G'OLIBA BO'LDI

Nargiza Himmatova Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 5-«B» sinifida tahlil oladi. Umaktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, murabbiy Malohat O'tayeva qo'l ostida sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanib keladi.

2013-yilda Nargiza Ishtixon tumanida badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan musobaqada II o'ringa sazovor bo'ldi. Bu yil «Sog'lom bola yili» munosabati bilan bo'lib o'tgan musobaqada unga teng keladigan raqib topilmadi.

Xonbibi MAHAMOVA,  
jurnalist

bor katta musobaqlar havosidan nafas olgan.

Vodiylar Marvaridi — Namangan shahrida bo'lib o'tgan «Barkamol avlod — 2014» sport musobaqlari ham tengdoshlarining orasidan yangi-yangi nomlarni kashf etdi. E'tiborlisi, bu yilgi musobaqlar avvalgisidan to'rtta ko'p, ya'ni sportning o'nolti turi — basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, og'ir atletika, dzyudo, yunon-rum kurashi, erkin kurash, boks, taekvando, yengil



atletika, badiiy gimnastika, tennis, stol tennis, suzish va shaxmat bo'yicha bo'lib o'tdi.

### TAASSUROTLAR BIR OLAM

Dilshoda MIRZARAHMATOVA, Namangan Olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchisi, Taekvando WTF bo'yicha to'rt karra O'zbekiston championi:

Sport tufayli inson nafaqat jismonan, balki ruhan chiniqadi. Men ham, mana bir necha

yildirki, sportning taekvando WTF turi bilan shug'ullanaman. Shu kungacha ko'plab respublika va xalqaro musobaqlarda qatnashgan bo'lsanda, «Barkamol avlod — 2014» sport o'yinlaridagi ishtirokim butun umr yodimda muhrlanib qoladi. Chunki ushu musobaqa tufayli, yurtimizning barcha hududlaridan kelgan tengdoshlarim bilan fikr almashtidim, o'z imkoniyatlarimni yana bir bor sinovdan o'tkazdim. Eng asosiyisi, ko'plab do'star ortirdim. Biz ular bilan «Universiada» sport musobaqlarida ham uchrashishga kelishib oldik.

### QUONCHIM ICHIMGA SIC'MAYDI

Mironshoh IBROHIMOV, Buxoro qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejining 3-bosqich o'quvchisi, boks bo'yicha O'zbekiston championati kumush medali sohibi:

Namanganga kelib, bu qutlug' diyor chindan ham «Gullar shahri» ekaniga guvoh bo'ldim. Yon-atrofda barq urib ochilib turgan anvoyi gullar, tekis va ravon yo'llar, go'zal favorolar shaharga o'zgacha chiroy baish etib turibdi. Ayniqsa, «Barkamol avlod — 2014» sport musobaqlari o'tkazilgan sport inshootlari zamonaiv uslubda bunaqod etilganligi, barcha qulayliklarga ega ekani bilan biz ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. To'g'risini aysam, hozir menda kechayotkan his-hayajonni so'z bilan ta'riflab bera olmayman.

Musobaqa g'oliblari haqida gazetamizning navbatdagi sonida ma'lumot beramiz.

Sa'dullo TURSINOV

## XO'JAYLIDA BOKSCHILAR BELLASHDI

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturi ijrosi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanida boks bo'yicha yoshlar o'rtasida xalqaro turnir o'tkazildi.

Mazkur musobaqada mezonlar, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlari hamda Qozog'istondan kelgan jami 132 nafr yosh charm qo'lqop ustasi 11 vazn toifasida g'oliblik uchun ringga ko'tarildi.

Eng muhim, keskin kurashlarga boy o'tgan bellashuvlarda ko'plab umidli sportchilar kashf etildi.

Qoraqalpog'istonlik A. Seylxonov, A. O'rozboyev, I. Jumaboyev, A. Bauatdinov, Z. Ilyosov, B. Qo'yshug'ulov, xorazmlik J. Yo'ldoshev, I. Sultonov, B. Qadamboyev, D. Ro'zmetov va qozog'istonlik N. O'teg'ulov o'z vazn toifasida birinchi o'rinni egalladi.

G'olib va sovrindorlar turnir tashkilotchilarining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shoh MUHAMMAD



I-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

# BOLA KULGUSIGA TO'LSIN BU OLAM

Har yili 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab ko'plab bayram tadbirlari, sport musobaqalari o'tkaziladi. Bu kabi xayrli ishlar farzandlarimiz qalbiga do'stlik, halollik, bag'rakenglik kabi e兹u fazilatlarini jo etish bilan birga, jajji bolajonlarimizga bayramona kayfiyat ulashadi.

Yaqinda «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklari, «Sen yolg'iz emassan» bolalar jamoatchilik jamg'armasi va yana bir qancha tegishli tashkilotlar hamkorligida poytaxtimizdagi «Toshkent-Lend» madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan «Har bir farzanga mehr, e'tibor» nomli bayram tadbiri ham ana shu maqsadda tashkil etildi. Tadbirga Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hamda Toshkent shahridagi Mehribonlik uylari, «SOS bolalar mahalla»lari tarbiyalanuvchilari, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalar, shuningdek, Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklari tizimida o'z xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining farzandlari taklif etildi. Shu kuni istirohat bog'i jajji bolajonlar ichtiyorida bo'ldi.

O'z muxbirimiz



Navro'z NORBOYOEV o'lgan surʼular

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

## HIKMATNI O'QING-CHI!



Aylanalardagi «H» harfidan boshlab ketma-ket barcha harflarni o'qish bilan mashqni hal eting. Bunda ulardan o'zbek adapbiyotining atoqli namoyandalaridan biri Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub ikki misra hikmat ayon bo'ldi.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

8



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'limagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADIROVA

Gazet O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Navbatchi  
muharrir  
Sayyora  
QODIROVA  
Rassom  
Feruzbek KAMOL  
o'gli  
Dizayner  
Olovuddin  
ORIPOV

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
[info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092  
Adadi – 51096  
Buyurtma S 51

2-iyun 2014



Qizlarjon, barchangiz «Zumrad» nomini  
eshitishingiz bilanoq ko'z oldingizda ertaklardagi  
mehnatkash qiz siymosi gurdalanadi, shunday  
emasmi? Bugun biz sizlarga tavsija qilmoqchi  
bo'lgan salatimiz ham shu nom bilan ataladi.

## «ZUMRAD» SALATI

Kerakli masalliqlar: 200 gramm  
dudlangan tovuq go'shti, 100 gramm  
qaynatilgan guruch, 2 dona  
qaynatilgan tuxum, 1 dona  
pomidor, yarim banka  
marinadlangan ko'k no'xat, bir  
bog'shivit, 200 gramm mayonez,  
ta'bga ko'ra tuz, murch.

Tayyorlanishi: guruchni  
sirli idishdagi tuzli suvida  
qaynatamiz. Chuqur



idishga dudlangan go'sht, tuxumni  
sonomcha shaklida to'g'rab solamiz.  
Pomidorni o'rtaча kattalikda  
bo'laklaymiz. So'ng'ra guruch, no'xat  
solib, ustidan biroz tuz va murch sepamiz.  
Barcha masalliqlar ustidan mayonez  
quyib, yaxshilab aralashtriramiz. Tayyor  
salatni likopchalarga solib,  
dasturxonga tortamiz.

Yoqimli istahha!  
NARGIZA tayyorladi